

MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Karimov Bahodir

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi”
kafedrasi assistenti

Nishonova Shaxrizoda Chori qizi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 180100. Mustaqillik ko‘chasi-225, Qarshi,
O‘zbekiston.

Elektron pochta: baxodirkarimov0928@mail.com

ANNOTATSIYA

Mehnatni muhofaza qilish insonning ishlab chiqarishdagi faoliyatida sodir bo‘ladigan turli ko‘rinishdagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalanish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan tadbirlar majmui va vositalar tizimidan iboratdir. Mehnat xavfsizligini ta’minlashda, ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko‘rsatmalar, qoidalar va sanitар-texnik me’yorlar hamda ularni o‘rganish bo‘yicha uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o‘rin to‘tadi.

Kalit so‘zlar: faoliyat, mehnat, muhofaza, nazariy, huquqiy, tashkiliy, sanitariya, mehnat gigiyenasi, shaxsiy gigiyena, xavfsizlik texnikasi, yong‘in xavfsizligi, baxtsiz hodisa, jarohatlanish, birinchi yordam.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishdan iboratdir. Albatta, hozirgi vaqtida har qanday jamiyatda munosib hayot sharoitini yaratish ilmiy-texnik taraqqiyot asosida amalga oshiriladi va bu inson mehnatini engillashtirish bilan bir qatorda, turli xil xavfli omillarni vujudga keltiradiki, natijada har xil ko‘rinishdagi baxtsiz hodisalar: jarohatlanishlar, shikastlanishlar va kasb kasalliklari vujudga keladi. Lekin, bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson yaxshi yashashni, ya’ni, o‘zining moddiy, ma’naviy va ijtimoiy extiyojlarini to‘liqroq qondirishni istaydi. Aynan shu sababli inson tinimsiz faoliyatda bo‘ladi.

Faoliyat – insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan asosiy shart-sharoitlardan biridir. Mehnat – faoliyatning oliy formasidir. Falsafiy nuqtai nazardan olib qaraganda “inson” tushunchasiga eng adekvat aniqlanish “Humo agens”, ya’ni “harakatdagi inson”dir. Albatta, faoliyat va mehnat formasi turlicha bo‘lib, u hayotdagi ishlab chiqarish, madaniyat, jamoat ishlari, ilmiy ishlar va boshqa sohalardagi amaliy, intellektual hamda ma’naviy jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Faoliyatni tartibsiz, amaldagi qonun-qoidalar, standartlar va ko‘rsatmalarga amal qilmasdan amalga oshirilishi, nafaqat jarohatlanish yoki shikastlanishni keltirib chiqarishi, balki ayrim hollarda o‘limga ham olib kelishi mumkin. Tabiiyki, bu insonni o‘z faoliyatidagi tabiiy, texnik, antropogen, ekologik va boshqa turdagи barcha xavfli omillardan himoyalashni ilmiy asosda tashkil etishni talab etadi. Aynan “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining asosiy maqsadi va vazifalari ushbu masala yechimiga qaratilgan bo‘lib, u fanning o‘z qonuniyatları, uslublari va printsiplari asosida amalga oshiriladi.

ASOSIY QISM

“Mehnatni muhofaza qilish” insonning ishlab chiqarishdagi faoliyatida sodir bo‘ladigan turli ko‘rinishdagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalanish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan tadbirlar majmui va vositalar tizimidan iboratdir. Insonning mehnat xavfsizligini ta’minlashda ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko‘rsatmalar, qoidalar va sanitar-texnik me’yorlar hamda ularni o‘rganish bo‘yicha uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o‘rin to‘tadi.

Mehnatni muhofaza qilishning asosiy maqsadi talabalarga insonning ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli omillar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo‘llari, mehnat xavfsizligini ta’minlash hamda xavfsiz va sog‘lom ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha nazariy bilim berish va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

Inson uchun qulay, xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitini yaratish quyidagi vazifalarni yechishni talab etadi:



Mehnat xavfsizligini ta'minlashda, ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko'rsatmalar, qoidalar va sanitar-texnik me'yorlar hamda ularni o'rganish bo'yicha uzlusiz ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlanterish muhim o'rinni to'tadi. Fanining asosiy maqsadi bo'lajak kasb egalariga insonning barcha ko'rinishdagi faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli omillar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari, faoliyat xavfsizligini ta'minlash hamda ishlab chiqarishdagi faoliyatida xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish bo'yicha nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilish orqali ijodiy-ilmiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlanterishdan iboratdir. Yuqoridaqilarga mos holda bo'lajak kasb egalari fanni o'rganish davomida qo'yidagilarni nazariy jihatdan o'zlashtirishlari lozim:

- mehnat xavfsizligini xarakterlovchi asosiy printsipler, uslublar va vositalar tizimi;
- xavfsizlik tizimi, uning tahlili va optimallashtirish dasturlari. Mehnat xavfsizligini boshqarish yo'llari;
- Mehnatni muhofaza qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari. Mehnat muhofazasiga oid qonunlar, standartlar tizimi, nizomlar, ko'rsatmalar, qurilish va sanitariya me'yorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni puxta bilish, ularni amalda hayotga tadbiq etish;
- sog'lom va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo'yicha rejali tadbirlar ishlab chiqish;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tahlil qilish, ularni tekshirish va hujjatlashtirish tartiblari;

- mehnat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish, baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash uslublari;
- xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan shaxsiy ximoya vositalari bilan ishchi-xizmatchilarni ta'minlash tartibi va ulardan foydalanish yo'llari;
- sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish bo'yicha sanitar-gigiyenik tadbirlar ishlab chiqishni;
- ishlab chiqarishdagi texnika vositalaridan, mashina-mexanizmlar, qurilmalar va moslamalardan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalari;
- yong'in xavfsizligi: yong'inning kelib chiqish sabablari, uni oldini olish, yong'inni uchirish texnika vositalariva usullari;
- jarohatlanganda yoki shikastlanganda vrachgacha birinchi yordam ko'rsatish qoidalarni puxta bilish.

Yuqorida qayd etilgan nazariy bilimlarga asoslangan holda har bir kasb egasi fanni o'rganish bilan quyidagi amaliy umumkasbiy kompetentlikka ega bo'lishlari lozim:

- xavfli va zararli ishlab chiqarish jarayonlarini baholash, xavfli va zararli muhitlardan himoyalanishda mustaqil qarorlar qabul qilish;
- xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha yo'riqnomalar o'tish va ularni hujjatlashtirish tartiblarini bilish;
- malakali ravishda baxtsiz hodisalarni tekshirish va ularning sabablarini aniqlash;
- mehnat muhofazasi bo'yicha ko'rsatmalar tuzish;
- ishlab chiqarish xonalari va ish joylarining sanitar-gigienik holatini belgilovchi ko'rsatkichlarni (gazlanganlik va changlanganlik darajasi, shovqin va titrash, yoritilganlik, harorat, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi, havo bosimi va b.) aniqlovchi asbob-uskunalar va jihozlardan foydalana bilish;
- o't o'chirgichlar va o't o'chirish texnikalarini ishlata bilish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlari jumladan, aloqa, axborotlashtirish va kommunikatsiya sohalari ob'ektlarida rahbar hamda ishchi-xodimlarni mehnat muhofazasi va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik choralarini bo'yicha o'qitish hamda ma'naviy tayyorlash;
- jarohatlanganda yoki shikastlanganda hamda favqulodda vaziyatlarda vrachgacha birinchi yordam ko'rsatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni. T.: 2016y
 2. Karimov Bahadir Oktam ogl'i, Nishonova Shahrizoda Chori qizi, Temirova Shahnazha Jamshidovna, Normengliyeva Fayyoza O'tkir kizi. SAFETY BEHAVIORAL AUDIT METHODOLOGY. International journal of advanced research in education, technology and management. 2.07. 2023
 3. Karimov Bahodir O'ktam o'g'li, Yusupov Begzod Ismoil o'g'li, CLASSIFICATION OF DANGEROUS AND HARMFUL FACTORS IN UZBEKISTAN GTL" FACTORY. GOLDEN BRAIN 2023-11-29.
 4. Мурадов С. ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
 5. O'G'LI M. S. H. ANALYSIS OF "MEASURES TO ENSURE OCCUPATIONAL SAFETY IN THE FIELD OF CARGO TRANSPORTATION AND LOADING." //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 9.
 6. ЎҒЛИ Р. Х. Ф., СИРОЖИДДИН М. ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ. МУРАДОВ СИРОЖИДДИН //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 10.
 7. O'G E. L. A. A. et al. PHYSIOLOGICAL AND HYGIENE BASIS OF HUMAN LABOR ACTIVITY //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 11.
 8. Husan o'g'li M. S., Shavkat o'g'li E. D. INNOVATIVE SOLUTIONS TO PROTECT WORKERS FROM DANGEROUS GAS AND TOXIC SUBSTANCES IN HAZARDOUS INDUSTRY ENTERPRISES.
 9. Husan o'g'li M. S., Utkir o'g'li Z. U. PRINCIPLES OF PASSING AND DOCUMENTING INSTRUCTIONS ON SAFETY TECHNIQUES.
 10. Rayimkulov A., Murodov S. Some Issues of Safety in the Use of Tower Cranes Used in Construction Projects //JournalNX. – С. 301-308.
 11. Sultonova D. N., qizi Siddiqova M. A. COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 109-115.
- Internet saytlar:**
1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
 2. www.lex.uz - O'zR Adliya vazirligi sayti.
 3. www.ziyonet.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi sayti.
 4. www.mintrud.uz – O'zR Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
 5. hfxraximov.uz – Hayot faoliyat xavfsizligi fanidan shaxsiy veb-sayt (prof.O.D.Raximov sayti)